

**MUHAMMAD YUSUF SHE'RIYATIDA YOR OBRAZI**

**Shokirova Gulhayo Bobir qizi**

*Buxoro davlat universiteti Filologiya fakulteti 3-bosqich talabasi*

**Annotatsiya:** Sho'ir she'riyati turli mavzularning adabiy qarashi bo'lib, unda adib o'z fikrini qiyosiy qarashlar va real voqealar asosida bayon etadi. Muhabbat, yor mavzulari adabiyot uchun an'anaviy qarashlar bo'lib , folklorda ham , mumtoz adabiyotda ham ular haqida dostonlar, g'azallar yozilgan. Muhammad Yusuf ijodida yor obrazi haqidagi qarashlar esa zamonaviy adabiyotda yaratilgan asar namunasi bo'lib, ularni o'qir ekansiz, adibning shaxsiy qarashlarini ham ko'rishingiz mumkin.

**Kalit so'z:** obraz, ifoda shakli, ot, yor, bevafo yor, qizg'aldoq, yolg'onchi yor, pari.

**Kirish**

Adabiyot - inson fikrlari, o'y-kechinmalarining , tuyg'ularining badiiy adabiyotdagi ifodasi bo'lib, ijodkor bunda o'z fikrlarini erkin, ravon , qiyoslash yo'li orqali badiiy usulda ifoda etadi. Bunda adib tasviriy ifoda, ramz , timsollar hamda mashhur asar qahramonlarini keltirish orqali o'z fikrini sochma yoxud nazmiy usulda bayon etadi. Adabiyotda ishq mavzusi an'anaviy va yetakchi mavzulardan biri bo'lib, eng ko'p va sermahsul ijod namunalari ham aynan shu masala madhiga bag'ishlangan. Badiiy adabiyotdagi eng go'zal ishq madhiga bag'ishlangan asarlar sirasiga "Yusuf va Zulayho", "Vomiq va Uzro", "Farhod va Shirin " kabi dostonlarni misol sifatida keltirishimiz mumkin. Ulardagi ishq sof muhabbat ko'rinishida bo'lib, zamonaviy adabiyotda Muhammad Yusuf she'rlarida bu mavzu bo'yicha shoirning o'ziga xos mulohazalariga guvoh bo'lamiz.

**Muhokama**

Yor – badiiy adabiyotda muhabbat mavzusidagi asarlardagi yetakchi qahramon bo'lib, bunda ag'yor ham doimiy hamroh obraz sifatida ishtirot etadi va aynan tilga olinmasa ham ziqlash hamda qarshilantirish orqali obraz gavdalantiriladi. Muhammad Yusuf o'zbek xalq shoiri bo'lib , uning asarlarida yor obrazi tasviriy ifodalar, tashbehlar yoki aynan obraz nomini keltirish orqali bayon etiladi.

Yor , eshiging ochilmadi men uchun,  
Tilingdan bol sochilmadi men uchun,  
Uyingdan joy topilmadi men uchun –  
Ketar bo'ldim yuzingni bir ko'rolmay.

Yor- hamisha oshiq nazdida bevafo obraz, unga erishish esa juda mushkul , qiyinchiliklar girdobidagi qahramon bo'lib, uning vasliga erishmoqlig go'yo ishqqi tushgan inson uchun baxt sarchashmasining kashf etilishi kabi. Ushbu misralar badiiyatini oshirishga xizmat qilgan yetakchi unsur bu qofiyadosh so'zlar qatori bo'lib, ochilmadi-sochilmadi-topilmadi so'zlari buning uchun xizmat qilgan. Misralar orqali shoir yorining o'jar, bir so'zli ekanligini ta'riflar ekan, maqsadiga yetisholmaganini afsus va nadomat bilan bayon etadi. Yor, deya murojaat qilar ean adib nido badiiy san'ati orqali uni insofli bo'lishga chorlaydi. "Kuyma , yorim , kuydirmagin, kuyma yor"- deya taqdirning azaliy haq ekanligini

, bir yaxshiga bir yomonning nasib etishini shoir yoriga aytib , go'yo jafokash yor oldida o'zini yaxshi ekanligini isbotlagandek bo'ladi. Haqiqatdan ham, qiz bolaning nozi bor – deydi dono xalqmiz. Yor ham o'z firoqida, hajrida oshiqni kuydirar ekan ,” Kuydirmagin” deya iltijo qilinadi adib tomonidan va go'yo ogohlantiriladi: kuydirmagin ham , kuymagin ham deya. Axir , qaytar dunyo degan fikr bekorga xalqimizda tilga olinmaydi.

Yana bir she'rida yorning aldoqchi ekanligini aytib , undan ko'ra bag'ri qon qizg'aldoqdan yaxshi yor chiqishini aytadi:

Ishongandim yorimga,  
Suyukli dildorimga.  
Yorim meni aldadi,  
Quloq solmay zorimga.  
Tog'lardagi qizg'aldoq  
Endi menga yor, hamroh.

Muhammad Yusuf she'riyatida “qizg'aldoq “ obraziga alohida urg'u beriladi, uning sadoqatli yor ekanligi ta'kidlanib, bahordek bevafo yori borligini aytish orqali ayrim misralarda o'zini ham ishqdab yurak bag'ri kuygan oshiq qizg'aldoqqqa o'xshatib, yorining jabri – sitamlarini qishning bemavrid sovug'iga ham qiyoslaydi. Yorning qanchalar suyukli bo'lishiga qaramay , jabr qiluvchi, sitamkor , aldoqchi ekanligini ham ta'kidlaydi.

Muhammad Yusuf yor haqida go'zal misralarni yozar ekan , o'zini bir suyanchiq, umr yo'llarida u bilan birga hamrohlikka chiqqan , dardda ham , qayg'uda ham sherik sifatida aytadi: Dardingni olay yorim, olay dardingni... Zero, yor va oshiqning muhabbatи ham sinov topshiradi , faqat bu sinovlarda toblangan, unga bardosh bera olgan haqiqiy juftlikkina ishq bog'idan gullar tera oladi. Chunki , haqiqiy ishq fidoyilikni talab qiladi va bu jonfidolik moddiyat bilan emas, eng qimmatli boylik bilan o'lchanadi:

Ey, Muhammad, yorga jonioymi berib,

Oyga boshimni qo'yib yotsammikin- , deya shoir yorga yaxshiliklarning hammasini tilaydi, uni naqadar yaxshi ko'rmasin , ardoqlamasin, hatto uning uchun o'lishga ham tayyor ekanligini aytadi.

Yor – qalbdan muhim o'rin olgan, butun vujudini chulg'ab olgan misoli bir alanga bo'lib , har kimning ishqisi har xil bo'ladi. Muhammad Yusuf ham o'z ishqining otga tushganini , otning sadoqati, eng sodiq do'stligi uchun hattoki, suyukli yordan ko'ra tulporning qadrli ekanligini ta'kidlaydi. Xalq dostonlarida ham qahramonlarning har birining alohida oti borligi aytildi: Go'ro'g'lining oti G'irot, Algomishning oti Boychibor va boshqalar. Shoir ham o'zining mard ekanligini , haqiqiy o'g'lon ekamligini ta'kidlash uchun ham oti borligini , unga dostonlardagi kabi mehr qo'yanini , tulporning ham sadoqatli ekanligini aytib o'tadi. Mardning ostida tulpori bo'lishi uning qudratining nishonasi, ammo chin yor ham qudrat namoyishi-da.

Og'aynilar ot menga ,

Ham do'st-u ham yor edi- deb shoir ikki o't orasida qolganini aytib o'tadi:

Qoldim ikki o't aro,  
Go'shangada dildorim.  
Kelin kelgan kechadan

Arazladi tulporim .

Naqadar samimiy misralar , soda , ravon va ko'ngilga yaqin. Shoirning o'ziga xosligi ham ifoda uslubining sodda va tushunarli ekanligi bilan baholanadi. Misralarda hatto o'xshatish va tasviriy ifodalar ham mavjud emas. Chunchaki , humoristik mulohaza bilan adib o'zining ahvolini izohlaydi: qizni o'psam, ot yig'lar, otni o'psam qiz yig'lar. Haqiqiy mardlarga xos mulohaza bilan o'zining holatini shoir ifodalaydi:

Qaydan bilsin ot qadrin,  
Ot minmagan erkaklar!

Haqiqiy mardning belida belbog'i bo'ladi, haqiqiy o'zbek ostida esa tulpori bo'ladi. Muhammad Yusuf ushbu she'ri orqali erkaklar g'ururini ham sinab ko'radi. Zero , temir tulporlarni minganda haqiqiy zavqni quchib bo'lmasligini , shijoatli va jasur o'g'lonlar yori – tulpor ekanligini ta'kidlaydi Andijonning asl dilbandi, atoqli o'zbek shoiri Muhammad Yusuf.

Ishq bir ummon , ammo g'avvos bo'lish juda xatarli . Chunki , manbalarda muhabbatning eng sof tuyg'uligi qayta – qayta takrorlanadi. "Farhod va Shirin" da ishq qalbni poklaydi deb takrorlaydi Alisher Navoiy. Tasavvufiy qarashlarda bu haqida ko'plab mulohazalarga ko'zimiz tushadi va Allohg'a muhabbat – eng buyuk ishq ekanligi aytildi. Muhammad Yusuf she'rlarida ham ishqning Allohg'a bo'lgan turini ham ko'rishimiz mumkin . Bu esa shoirning serqirra ijodkor ekanligini yana bir bor isbotlaydi.

Degaylor yolg'izga Xudoyimdir yor,  
Bu dunyoda beklar u dunyoda xor.

Darhaqiqat, mehnat va mashaqqat bilan kechgan umrning qiymati yo'q. alloh nazdida ham , uni sevgan oshiqlarning halollikda kechirgan , hatto u qiyinchiliklarga to'la bo'lsa ham umrining bahosi Mahsharda to'lansa yetar. Biz moddiyatga oshiqmiz, ammo bu qisqa umrimizda haqiqiy yor – Allohn'i unutamiz. Muhammad Yusuf ham garchi zamonaviy adabiyot vakili bo'lsa ham she'rlarida ham zamonni, ham tasavvufiy qarashlarni gavdalantirgan.

### Xulosa

Muhammad Yusuf – ishq va oshiqning his-tuyg'ularini nazmga solgan, ularning munosabatlarini misralarda gavdalantirgan shoirdir. Keyingi yillarda uning she'riyatini o'rganish bo'yicha salmoqli ishlar amalga oshirildi. Ushbu maqolada esa, adibning she'rlaridagi yor mavzusi haqida to'xtalib o'tar ekanman , shuni ta'kidlay olamanki, hali bu masala bo'yicha mulohazalar ko'p. Shoir ijodi hali xazina , ushbu maqola maxzanga eltuvchi yo'l kabidir.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. "Alyorim qolur" M. Yusuf .Samarqand nashriyoti 2001-yil
2. "Bevafo yor" M.Yusuf . Toshkent. 2010-yil
3. Fatelyoevna K.Z. (2023). CHARACTERISTICS OF RUSSIAN ELEGY. *Journal of Innovation, Creativity and Art*, 2(4), 103–104.

4. Karamatova Zarina Fatilloyevna. (2023). Features of Russian elegy. *Eurasian Journal of Learning and Academic Teaching*, 18, 198–200. Retrieved from
5. Karamatova Zarina Fatilloyevna. (2023). Musical Elegy, the history of its origin. *Eurasian Journal of Learning and Academic Teaching*, 18, 201–203.
6. Кароматова, З. Ф. (2017). Воспитание в учениях мыслителей Востока. *Достижения науки и образования*, (4 (17)), 47–48.
7. H.Umurov .Adabiyot nazariyasi T-Ma'naviyat nashriyoti 1993-yil
8. Wikipedia.uz
9. [www.ziyo.com](http://www.ziyo.com)